



MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATIT TURK" ASARINING ILMYI VA MA'NAVIY AHAMIYATI

Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

ruxshonamamasaidova518@gmail.com

Usmonov Nurmuhhammad Eshmahmat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

usmonovn596@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933957>

Annotatsiya: Ushbu maqola XI asr allomasi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Koshg'ariy tomonidan yozilgan "Devonu lug'atit turk" asarining ilmiy va ma'naviy ahamiyati haqida so'z yuritadi. Asarda turkiy tillarning o'zaro farqlari, lug'aviy boyligi, tarixiy-geografik ma'lumotlari hamda turkiy xalqlarning madaniyati yoritilgan. Maqolada asarning ilmiy jihatlari, ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan jihatlari va bugungi kunda tutgan o'rni keng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk, tilshunoslik, turkiy xalqlar, Qoraxoniylar davlati, turkiy lahjalar, ilmiy meros, xalq og'zaki ijodi, qadriyatlar, madaniyat, xarita, ma'naviyat, tarixiy manba.

Аннотация: В трёх статьях рассматривается научное и духовное значение произведения «Девунулугатит Тюрк», написанного учёным XI века Махмудом ибн Хусейном ибн Мухаммадом аль-Кашгари. В работе рассматриваются различия между тюркскими языками, их лексическое богатство, историко-географические сведения и культура тюркских народов. В статье представлен комплексный анализ научного изучения произведения, духовных ценностей, которые оно воплощает, и его места в современном мире.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, «Девунулугатит Тюрк», языкознание, тюркские народы, государство Караханидов, тюркские диалекты, научное наследие, устное народное творчество, культура, духовность, исторический источник.

Abstract: Three articles discuss the scientific and spiritual significance of the work "Devunulugatit Turk" written by the 11th century scholar Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Kashgari. The work covers the differences between Turkic languages, their lexical richness, historical and geographical information, and the culture of the Turkic peoples. The article provides a comprehensive analysis of the scientific study of the work, the spiritual features it embodies, and the place it occupies today.

Keywords: Mahmud Kashgari, Devunulugatit Turk, linguistics, Turkic peoples, Karakhanid state, Turkic dialects, scientific heritage, folk oral literature, culture, culture, culture, spirituality, historical source.

Kirish: Turkiy xalqlar tarixida XI asr ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri sifatida e'tirof etiladi. Aynan shu davrda Mahmud Koshg'ariy o'zining buyuk asari "Devonu lug'atit turk"ni yozadi. Mahmud Koshg'ariy ibn Husayn ibn Muhammad (XI-asr) - turkshunoslik ilmining asoschisi. filolog olim. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansub. Otasi Husayn ibn Muhammad o'sha davrdagi Baregan elining amiri bo'lgan. Koshg'ariy boshlangich ma'lumotni o'z qishlog'ida, yuqori



ma'lumotni Koshg'ar madrasalarida olgan, arab, fors, turkiy kabi 7—8 tilni puxta egallagan. So'ng u Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur shaharlarida bilimni oshirgan. Koshg'ariy hayoti haqida yagona manba uning o'z qalamiga mansub asarlaridir. Bizga ma'lum ma'lumotlarga ko'ra u Qoraxoniylar davlatida qoraxoniylar sulolasiga aloqador zodagon oilada tug'ilgan. Qoraxoniylar davlatidagi ichki nizolar tufayli vatanini tark etib, 15 yil davomida atrofdagi qardosh xalqlar orasida yurishga majbur bo'lgan va Bag'dodga yetib borgan. Koshg'ariy Bag'dodda olimlar o'rtasida turkiy xalqlar va ularning tillariga katta qiziqish borligini kuzatgan, shu sabab bu mavzuda ikki asar yozishga qaror qiladi. Bunday asarlardan biri uning jahonga mashhur "Devonu lug'atit turk" asaridir. Bu asar arab tilida bitilgan bo'lsa-da, butun mazmuni turkiy xalqlar hayoti, tili, madaniyati va tarixiga bag'ishlangan. Mahmud Koshg'ariy Qoshg'ar shahrida tavallud topib, o'z davrining yetuk allomalari qatoriga ko'tarildi. U ko'p yillar davomida turkiy qabilalar orasida yashab, ularning tillarini, shevalarini, urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodini yig'ib chiqdi. Natijada 1072–1074-yillar oralig'ida Bag'dod shahrida o'z asarini yozib tugatdi va xalifa al-Muqtadiyga taqdim etdi. "Devonu lug'atit turk" nafaqat tilshunoslikning buyuk yodgorligi, balki turkiy xalqlarning ma'naviy dunyosini yorituvchi bebaho manba sifatida ham qadrlanadi¹

Muhokama va natijalar:

Mahmud Koshg'ariy asarni yozishdan oldin turkiy qabilalar tilini mukammal o'rgangan. O'sha davrda turkiy xalqlar keng hududlarga tarqalgan va turli lahjalar bilan so'zlashar edi. Arab dunyosi bilan aloqalar kuchaygan davrda turkiy tilni o'rgatish, ularni madaniy jihatdan tanitish zarurati tug'ilgan. Shu bois Koshg'ariy arab tilida yozilgan ammo turkiy tillarni izohlagan ilmiy lug'at yaratdi. "Devon"ning ilmiy ahamiyatiga keladigan bo'lsak "Devonu lug'atit turk" asari ilm-fan sohalari uchun ulkan manba hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan asarda 7500 dan ortiq turkiy so'z arab tiliga tarjima qilinib ularning talaffuzi, ma'nosi va grammatik shakllari izohlangan. Bu jihatdan asar turkiy tillarning birinchi qomusi (ensiklopediyasi) bo'lib xizmat qiladi. Mahmud Koshg'ariy mazkur asariga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ilova qiladi. Xaritada mamlakat, shaxar, qishloq, tog', cho'l, dengiz, ko'l, daryo qabilalarning nomlari yozilgan. Xaritada aks etmagan ba'zi bir nomlar lug'at matnida izohlangan. Xarita asosan Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Bu haqida Mahmud Koshg'ariyning o'zi "Rumdan Mochingacha bo'lgan shaharlar o'rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim" - deb yozadi. Shartli qabul qilingan bo'yoqlar rangi doira tashqarisida to'rt joyda so'z bilan izohlangan. Ayrim kamchiliklariga qaramay Mahmud Koshg'ariyning XI-asrda tuzilgan xaritasi o'z davri uchun mukammal hozirgi davr uchun geografik ma'lumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi. Fonetik va grammatik ma'lumotlar jihatdan turkiy so'zlarning talaffuzi, tovush o'zgarishlari, ot va fe'l yasash usullari aniq qayd qilingan. Etnografiya va adabiyotshunoslik jihatidan "Devon"da xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari, she'riy parchalar jamlangan. Bu o'rinda u xalq og'zaki ijodini yozma manbada saqlab qolgan². Demak "Devonu lug'atit turk" ko'p qirrali ilmiy

¹Mahmud Koshg'ariy. Devonulug'atit turk. — Toshkent: Fan, 1960.

²Abdurahmonov Q. O'zbektilshunosligitarixi. — Toshkent: Fan, 1980.



asar bo'lib, tilshunoslikdan tashqari boshqa fanlarga ham xizmat qiladi. Asarning ma'naviy ahamiyati Mahmud Koshg'ariy o'z asarida turkiy xalqlarning ma'naviy olamini ham yoritgan. Asarda ezgulik, vatanparvarlik, do'stlik, halollik kabi tushunchalar turli maqollar va hikmatlarda ifodalangan. Koshg'ariy turkiy tillarni arab tilidan kam emasligini ilmiy asoslab berdi. Bu orqali turkiy xalqlar o'z o'tmishidan faxrlanishlari uchun zamin yaratdi. She'riy parchalar va xalq ijodi namunalarida insoniylik, jasorat, sadoqat singari qadriyatlar targ'ib qilinadi. Shu bois "Devon" oddiy lug'at emas, balki turkiy xalqlar ruhiy dunyosining aks-sadosi bo'lib, ma'naviy meros sifatida bebaho ahamiyatga ega. Ma'lumotlarga ko'ra Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" dan avvalroq yaratilgan "Javoqirun-nahvi fi lug'otit-turk" ("Turkiy tillar sintaksisi qoidalari") deb nomlangan asari ham bo'lgan. Ushbu asar hozircha topilgani yo'q. Mahmud Koshg'ariy 1080-yilda (yoki 1118 yilda) vataniga qaytib kelib O'paldagi Aziz qishlog'ida, Hazrati Mullom tog'i etagidagi tepalikda joylashgan madrasada dars bergan va ilmiy ijod bilan mashg'ul bo'lgan hozirda mazkur madrasaning faqat poydevorlari saqlanib qolgan. Mahmud Koshg'ariy 1105-yilda (yoki 1126-yilda) 97 yoshida vafot etib, O'paldagi uning ajdodlari maqbarasiga dafn etilgan. Maqbara hozirgacha "Hazrati Mullom mozori" nomi bilan mashhur³

Bugungi kunda "Devonu lug'atit turk" turkologiya, adabiyotshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik fanlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Vasiliy Bartold „Devonu lug'otit turk“dan o'z ilmiy ishlarida keng foydalanganini sharqshunos S. Volin ko'rsatib o'tgan. Tilshunos olim Viktor Ivanovich Belyayev „Devonu lug'otit turk“ haqida shunday yozadi: „Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan. Muallif bergan ma'lumotlar arxeologik kashfiyotlar bu ma'lumotlarning aksariyatini isbot etmoqda“. Nemis sharqshunosi Karl Brokelmann „Devonu lug'otit turk“ asarini 1928-yil nemis tiliga tarjima qildi. „Devonu lug'otit turk“ qo'lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli, 1915-1917-yillar) keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli, 1939-1941-yillar) turk tiliga tarjima qilinib chop etilgan. „Devonu lug'otit turk“ ning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-yil amalga oshirildi. „Devonu lug'otit turk“ ikkinchi bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilan 1960-1963-yillari Toshkentda „Fan“ nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Bu tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo'lmay turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir. O'zbekcha nashrining muqaddima qismida XI asr filologlari, „Qutadg'u bilig“ asari, Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug' va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkripsiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. „Devonu lug'otit turk“ o'zbekcha nashrining oxirida turkiy urug', qabila, shaharlar va boshqalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar bor. Asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so'z va iboralar keng ta'riflanadi va izohlanadi. O'zbekcha nashrining muhim tomonlaridan

³Karimov N. Mahmud Koshg'ariyvauningilmiymerosi. — Toshkent: O'zbekiston, 1995.



biri uning har bir jildi asosida tuzilgan ko'rsatkichdir. Unda „Devonu lug'otit turk“da uchragan so'zlar alifbo tarzida keltirilib, so'zning o'zbek va rus tilida tarjimasini beriladi. Mazkur so'zning „Devonu lug'otit turk“ ning qaysi betlarida uchrashi (oldin o'zbekcha, so'ng turkcha nashrlarining beti, satri) ko'rsatib o'tiladi. turkiy xalqlar o'zining qadimiy tarixini va til boyligini o'rganishda asosiy qo'llanma sifatida foydalanib kelishmoqda. Bu asar yoshlar ongida milliy g'urur va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim o'rin tutadi va O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa turkiy mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlarda asosiy manbalardan biri sifatida o'rganilmoqda⁴

Xulosa: Mahmud Koshg'ariy turkiy xalqlarning tarixiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini o'z asari orqali jahon ilm-faniga tanitgan ulug' olimdir. „Devonu lug'atit turk“ nafaqat tilshunoslikning ilk qomusiy asari, balki turkiy xalqlar hayoti, urf-odatlarini, dunyoqarashi, qadriyatlarini va adabiy ijodini o'zida mujassam etgan noyob manbadir. Unda 7500 dan ortiq so'zning ma'nosi, grammatik xususiyatlari va talaffuzi qayd etilgani, shuningdek, xalq maqollari, qo'shiqlari, hikmatlari, she'riy parchalar kiritilgani turkiy xalqlarning boy og'zaki ijodini saqlashga xizmat qilgan. Mahmud Koshg'ariyning dunyo xaritasi ham o'z davrida ulkan ilmiy yangilik bo'lib, bugungi kunda geografik va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim manba sanaladi. Asarda yoritilgan ezgulik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, do'stlik kabi qadriyatlar esa uning ma'naviy ahamiyatini yanada oshiradi. Demak, „Devonulug'atit turk“ — bu faqat lug'at emas, balki ko'p qirrali ensiklopedik merosdir. U tilshunoslikdan tortib, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik va falsafaga qadar ko'plab fanlar uchun beqiyos manbabo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ham bu asar nafaqato'zbek xalqi, balki barcha turkiy xalqlar uchun g'urur manbai va ilmiy-ma'naviy meros sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. - Toshkent: Fan, 1960.
2. Abdurahmonov Q. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: Fan, 1980.
3. Karimov N. Mahmud Koshg'ariy va uning ilmiy merosi. - Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. Yoqubov H. Turkologiya asoslari. - Toshkent: Universitet, 2001.
5. Rahmonov Sh. Turkiy xalqlar ma'naviy merosi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Qosimjonov H. O'zbek adabiyoti tarixi manbalari. - Toshkent: Universitet, 2015.

⁴Yoqubov H. Turkologiya asoslari. — Toshkent: Universitet, 2001.